



ONA TILI TA'LIMIDA "O'RGANISH" VA "O'ZLASHTIRISH" JARAYONINING BUGUNGI HOLATI TALQINI

Axmadjonova Nigina Jamshid qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti

nigishaaxmadjonova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671558>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2025 yil

Ma'qullandi: 10-June 2025 yil

Nashr qilindi: 16-June 2025 yil

KEY WORDS

til o'rganish, til o'zlashtirish,
kompetensiyaviy yondashuv,
psixolingvistika, Davlat ta'lim
standarti, multimodal metod,
kognitiv rivojlanish, Milliy o'quv
dasturi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ona tili ta'limida "o'rganish" va "o'zlashtirish" jarayonlari o'rtasidagi psixolingvistik farqlar, ularning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati hamda amaliyotga tadbiriq tahlil etilgan. Shuningdek, 5-sinf o'quvchilarining tilni egallash bosqichlaridagi kognitiv xususiyatlari, ularning tilni nazariy o'rganishdan amaliy o'zlashtirishga o'tishidagi qiyinchiliklar ko'rsatib o'tilgan. Kompetensiyaviy yondashuv, multimodal va interfaol metodlar orqali ona tili darslarini tashkil etishning samarali usullari yoritilgan.

Introduction: Bugungi global axborot jamiyatida ona tili ta'limining sifat darajasini oshirish zarurati yanada dolzarb tus olmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirishda "o'rganish" va "o'zlashtirish" jarayonlarini farqlash va ularning har biriga mos metodik yondashuvni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanish bosqichlariga mos tarzda ona tili darslarini tashkil etish, ularni nazariy bilimdan amaliy qo'llashga o'tkaza olish salohiyatini shakllantirish zarur. Amaldagi DTS va davlat hujjatlarida ta'limga kompetensiyaviy yondashuv asosida yondashish talabi ilgari surilgan bo'lib, bu tilni o'zlashtirishni real nutqiy kontekstda tashkil qilishni taqozo etadi.

The main part. Til egallash – tilni idrok etish qobiliyati bo'lib, muayyan tilda so'zlashish uchun jumlar tuza olish, tildan ma'lum miqdorda foydalana olish ko'nikmasi hisoblanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da bu ikki tushuncha quyidagicha izohlangan:

O'rganmoq – 1) Biror narsani bilib olish, o'zlashtirish, egallash; 2) Tajriba orttirish, malaka hosil qilish ma'nosida ishlatiladi¹.

O'zlashtirmoq – 1) Biror narsani egallab olish, o'z mulkiga aylantirish, o'ziga xoslashtirish; 2) Boshqaga tegishli narsani o'ziniki qilib olmoq².

"O'rganmoq" fe'lining lug'aviy ta'rifida til yoki bilimni bilib olish, malaka orttirish kabi jarayonlarni anglatadigan ma'no yotadi. Bu esa tilga tashqi yondashuvni, ya'ni tilni yangi mahorat sifatida egallash bosqichini anglatadi. Odatda bu bosqich boshlang'ich o'rganish darajasidagi o'quvchilar yoki ikkinchi til sifatida til o'rganuvchilar faoliyati bilan bog'lanadi.

“O‘zlashtirmoq” esa allaqachon o‘rganilgan bilimning ichki kompetensiyaga aylanishi, ya’ni uni faol ravishda mustaqil qo‘llay olish darajasini anglatadi. Bu bosqich o‘quvchining tilda fikr yuritish, nutqiy faoliyatga to‘liq kirishishi bilan bog‘liq. Demak, o‘zlashtirish – bu til o‘rganish natijasining sifatli natijasi hisoblanadi.

Til o‘rganish jarayonini ikkinchi til (chet tili)ni o‘rganish asosida kuzatish mumkin. Masalan, o‘quvchi ingliz tilini o‘rganayotganda, “do” yordamchi fe’li yoki “*present simple*” zamonini rasmiy tushuntirish orqali o‘rganadi. Bu ikki hodisaning farqli jihatlarini ushbu jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

Xususiyatlari	Til o‘zlashtirish	Til o‘rganish
Tabiiylik darajasi	Tabiiy, o‘z-o‘zidan	Sun‘iy, maxsus ta‘lim asosida
Jarayon	O‘z-o‘zidan	Ongli
Grammatik qoidalar	Intuitsiya asosida o‘zlashadi	Maxsus o‘rganiladi
Muhit	Tabiiy muhit	Sun‘iy, dars muhitida
Til egallash tezligi	Sekin-asta	Tez
Muddati	Uzoq vaqt	Cheklangan
Natija	Mukammal til egallash	Cheklangan, formal bilimlar

1-jadval.

Ona tili ta‘limi tizimida til o‘rganish va til o‘zlashtirish tushunchalari zamonaviy ta‘lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki jarayon bir-biriga yaqin, lekin mohiyat jihatdan farq qiluvchi psixolingvistik hodisalardir. Til o‘zlashtirish ko‘proq tabiiy, ijtimoiy muhitda yuzaga keladigan ong osti faoliyatiga asoslangan bo‘lsa, til o‘rganish maqsadli, ongli, tashkil etilgan ta‘limiy faoliyat asosida shakllanadi. Aynan shu jihatlar bugungi ta‘lim strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish, ularni zamon talablari asosida boyitish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori³ bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti (DTS)da ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar, ularning mazmuni va ta‘lim natijalari aniq ifodalangan. Mazkur standartda ta‘lim jarayonining natijaviyligi, ya’ni o‘quvchining egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalari asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Bu esa dissertatsiyamizda ilgari surilgan til o‘rganish va til o‘zlashtirish jarayonlarini farqlab, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish g‘oyasi bilan bevosita uyg‘unlashadi.

DTSda belgilanganidek, ona tili ta‘limi o‘quvchilarda funksional savodxonlikni, ya’ni og‘zaki va yozma nutqda til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, muloqotga kirishish, axborotni tahlil qilish, fikrni mantiqiy asoslash, mustaqil qaror qabul qilish, matn bilan ishlash kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa til o‘zlashtirish jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, DTS talablarida nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi yetarli emasligi, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish muhimligi ta‘kidlangan.

Boshqacha aytganda, DTSda belgilangan nutqiy, ijtimoiy-madaniy, axborot-kommunikativ, shaxsiy va fuqarolik kompetensiyalari o‘quvchining tilni egallashidagi ikki bosqichli jarayonni – avval til haqidagi nazariy bilimlarni o‘rganish (til o‘rganish), so‘ngra esa

bu bilimlarni nutqiy faoliyatda qo'llay olish (til o'zlashtirish) bosqichlarini izchil amalga oshirishni talab qiladi. Dissertatsiyada taklif etilayotgan metodika ham o'quvchi avval tushunchalarni ongli ravishda egallashi, keyin esa uni amaliy mashg'ulotlar orqali real hayotiy kontekstda mustahkamlashi zarurligini asoslab beradi.

DTSda 5–9-sinflar uchun belgilanadigan ta'lim mazmuni, metodik yondashuvlar va baholash mezonlari o'quvchi faoliyatini faollashtiruvchi, izlanishga undovchi, muloqotga tayyorlovchi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozimligi qayd etilgan. Ushbu yondashuv aynan til o'zlashtirish jarayonini sifatli tashkil etishning zamonaviy metodik asoslarini belgilaydi.

Shuningdek, 2017-yilgi DTSda fanlararo integratsiyaga, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darslarni tashkil etish tavsiya etilishi tilni hayotiy faoliyat bilan bog'liq holatda o'zlashtirish, o'quvchining faolligini oshirish, tilda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu holat amaliyotda, ayniqsa, til o'zlashtirishga qaratilgan topshiriq va mashqlarni samarali tanlashda muhim omil hisoblanadi.

2017-yilgi Davlat ta'lim standarti ona tili ta'limida til o'rganish va til o'zlashtirish jarayonlarini bir-biridan ajratgan holda, ularni uzviy bog'lanishda amalga oshirishni talab etadi. Dissertatsiyaviy tadqiqotda taklif qilinayotgan farqlangan metodika ham aynan DTS talablariga mos holda, o'quvchi nutqiy salohiyatini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim mazmunining yangilanishi va metodik yondashuvlarning zamon talablari asosida takomillashuviga xizmat qiluvchi ilmiy asos bo'la oladi.

Hozirgi davrda o'zbek tilini o'rgatish va o'zlashtirish jarayonlari keng ko'lamli pedagogik va psixolingvistik tahlil markazida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6084-sonli va PF-6097-sonli farmonlari⁴ bilan ona tilini o'rganish bo'yicha strategik vazifalar belgilanib, o'quv dasturlari va metodikalarga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy o'quvchilarning, ayniqsa 5-sinfdagi bolalarning kognitiv rivojlanish darajasi, tahliliy fikrlash salohiyati, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi kabi omillarni inobatga olgan holda metodik yondashuvlar yangilanmoqda.

5-sinf o'quvchilari ona tili fanida grammatik birliklarni o'zlashtirishda, ayniqsa, so'z turkumlari, gap bo'laklari, so'z yasalishi, imlo kabi mavzularda ayrim qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat til o'rganishdan tilni ongli ravishda o'zlashtirish bosqichiga o'tishda yuzaga keladigan muammolar bilan bog'liq. Masalan, o'quvchilar morfologik birliklarni yod olishda qiyinchilik sezmasligi mumkin, biroq ularni nutqiy faoliyatda qo'llashda, ayniqsa yozma nutqda foydalanishda sustkashlik kuzatiladi. Bu esa, ta'limda faqat bilim berishga emas, balki ko'nikma va malaka shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy til o'zlashtirish metodikasida kompetensiyaviy yondashuv yetakchi o'ringa chiqmoqda. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchi faqat bilim olmasligi, balki uni amaliyotda qo'llay olishi lozim. Bu yondashuv 5-sinf o'quvchilari uchun ayniqsa muhim, chunki ular maktabning boshlang'ich bosqichidan umumiy o'rta ta'lim bosqichiga o'tish davrida tilga nisbatan yangi munosabat shakllantiradi. Bu davrda mashg'ulotlar nafaqat o'qituvchi markazli bo'lishi, balki o'quvchi faoliyatini ham o'rganishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Shu sababli, tilni faqat o'qituvchining tushuntirishlari asosida emas, balki o'quvchining mustaqil faoliyati orqali o'zlashtirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Bu borada raqamli texnologiyalar va interfaol usullar muhim vositaga aylanmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masalan, onlayn mashqlar, test tizimlari, sun'iy intellekt yordamida tahliliy topshiriqlar tuzish imkoniyati til o'zlashtirish jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Bunday metodlar o'quvchining til materialiga nisbatan mustaqil yondashuvini kuchaytiradi, ularni o'z bilimi va tajribasi asosida umumlashtirishga undaydi. Shu orqali tilni o'zlashtirish faqat passiv bilim yig'ish emas, balki faol kommunikativ faoliyatga aylanadi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, multimodal metodlardan foydalanish til o'zlashtirishda samarali natijalar beradi. Masalan, bir vaqtning o'zida tinglab anglash, ko'rish, yozish va gapirish kabi faoliyat turlari uyg'un holda tashkil etilgan ta'lim o'quvchining nutqiy malakalarini kompleks shakllantiradi. Bu usullar, ayniqsa, morfologiya va sintaksis kabi grammatik mavzularni o'zlashtirishda qo'llanilsa, grammatik birliklarni faqat qoidalar asosida emas, balki nutqiy holatlarda qo'llash orqali mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Til o'zlashtirishda o'quvchilarning psixolingvistik xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim. 5-sinf o'quvchilari hali kognitiv jihatdan mavhum tushunchalarni to'liq anglab yetolmaydigan davrda bo'lgani uchun ularga beriladigan topshiriqlar vizual, kinestetik va audial vositalar bilan boyitilishi kerak.

Shu jihatdan qaralganda, interfaol metodlar, masalan, rol ijro etish o'yinlari, juftlikda ishlash, muammoli savollar berish, hikoya tuzish, mantiqiy zanjir yaratish kabi faoliyatlar o'quvchining tilga nisbatan faol, ongli munosabatini shakllantiradi.

Bugungi ta'limda til o'rganish va o'zlashtirish jarayonlari o'rtasidagi farqlarni aniq belgilash, ularni metodik yondashuvlar bilan to'ldirish zaruriyati dolzarb. Chunki ona tilini o'rganish tabiiy muhitda boshlansa-da, u maktab muhitida ongli, maqsadli o'zlashtirishga aylanishi kerak. Bu jarayonni yengillashtirishda individual yondashuv, differensial topshiriqlar, ko'p bosqichli savol-javoblar, o'zaro fikr almashish kabi usullar yordam beradi.

Ta'limda til o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash uchun yana bir muhim omil bu – fanlararo integratsiya. Ya'ni o'quvchilar ona tilini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganishi zarur. Masalan, tabiatshunoslik darsida matn yozish topshirig'i berish, tarix darsida hikoya tuzdirish, texnologiya fanida esa jarayonni tavsiflash orqali o'quvchi so'z boyligini faqat til darslarida emas, balki turli kontekstda ham qo'llashni o'rganadi. Bu esa til o'zlashtirishni mazmunan boyitadi, bilimlarni hayotiy holatlarda qo'llashga o'rgatadi.

Yuqoridagi holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, ona tilini o'rgatish va o'zlashtirishda faqat grammatik va leksik bilimlar bilan cheklanib qolmaslik, balki tilning kommunikativ, madaniy va funksional jihatlari ham e'tibor qaratish zarur. O'quvchi tilda fikr bildirishni, o'z nuqtayi nazarini ifodalashni, tushunganini tahlil qilishni, savolga javob berishni, mavzu bo'yicha mulohaza yuritishni o'rganishi kerak. Bu esa til o'zlashtirishda yuqori darajadagi ma'naviy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, ona tili ta'limida til o'rganish va til o'zlashtirish jarayonining bugungi holati tubdan yangilangan, amaliyotga yo'naltirilgan va texnologiyalar bilan integratsiyalashgan ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Endilikda o'quvchi bilimi faqat baholash uchun emas, balki hayotiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur jarayon sifatida ko'rilmogda. Bu esa, o'z navbatida, ona tili o'qituvchisining metodik madaniyati, innovatsion yondashuvi, tahliliy salohiyatiga yuqori talab qo'yimoqda.

Bugungi kunda ona tili ta'limida til o'rganish va til o'zlashtirish jarayonining holati zamonaviy ilmiy izlanishlar, texnologik taraqqiyot va global ta'lim muhitidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Til o'rganishda zamonaviy tendensiyalar va multidisiplinar yondashuvlar til o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. Bugungi ilmiy tadqiqotlar til o'zlashtirishni faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki psixologik, sotsiologik, neurolingvistik va pedagogik jihatdan ham o'rganmoqda. Bu jarayonda grammatik, leksik-semantik, diskursiv va pragmatik kompetensiyalar bir butunlikda shakllantiriladi. Ayniqsa, monolingval va bilingval muhitda til o'zlashtirishning farqlari, yosh guruhlari bo'yicha rivojlanish bosqichlari, tipik til rivoji, savodxonlikni shakllantirish, til o'zlashtirishdagi baholash va aralashuv usullari, yangi metodologik yondashuvlar bugungi ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlari sifatida ajralib turadi.

Zamonaviy til o'rgatish metodikalarida innovatsion strategiyalar, jumladan, texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi markazli yondashuvlar, mustaqil o'rganishni rag'batlantirish va madaniy immersiya muhim o'rin tutmoqda. Texnologiyalar, xususan, multimodal materiallar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi interaktiv vositalar til o'zlashtirish jarayonini individuallashtirish, motivatsiyani oshirish va til kompetensiyalarini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. O'quvchilar mustaqil o'rganish va o'z-o'zini baholash imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa til o'zlashtirishda yuqori natijalarga olib kelmoqda.

Bugungi kunda til o'zlashtirishda individual yondashuvlar, kontekstual va differensial ta'lim, multimodal va interaktiv usullar, shuningdek, texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o'rganish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, ilgari o'zlashtirgan bilimlari va madaniy tajribasi inobatga olinmoqda. Shu bilan birga, til o'zlashtirishda motivatsiya, ijtimoiy muhit, oilaviy va maktab omillari, shuningdek, samarali aralashuv strategiyalari ham muhim rol o'ynaydi.

Ona tili ta'limi jarayonida zamonaviy baholash tizimlari va diagnostika vositalari, jumladan, bolalarning nutqini baholash uchun ko'z harakatlarini kuzatish, multimodal metodlar, texnologik aralashuv kabi usullar keng qo'llanilmoqda. Bu esa til o'zlashtirish jarayonini chuqur va aniq baholash imkonini beradi va erta bosqichda til rivojidagi muammolarni aniqlash hamda samarali aralashuv choralari ishlab chiqishga yordam beradi.

Texnologiyalar va innovatsion metodikalar til o'rganish samaradorligini oshirmoqda. Ona tili asosidagi ta'lim keyingi bosqichlarda boshqa tillarni o'zlashtirish va umumiy akademik muvaffaqiyat uchun mustahkam poydevor yaratmoqda va, aksincha, xorijiy tillarni o'rganish bolalarning ona tilidagi til ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan va 2020-yildan boshlab amaliyotga joriy etilgan Milliy o'quv dasturi⁵ umumiy o'rta ta'limning mazmunini tubdan yangilashga, o'quvchining hayotiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Dasturda fanning nazariy asoslarini o'rganish (ya'ni til o'rganish) bilan birga, ularni amaliyotda qo'llay olish (ya'ni til o'zlashtirish) zarurligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Ona tili ta'limida ushbu ikki jarayonni farqlab yondashish dars jarayonlarini samarali tashkil qilish,

kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalda tatbiq etish va individual strategiyalarni aniqlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy o'quv dasturida ona tili fanidan o'quvchilar quyidagi asosiy kompetensiyalarni egallashi lozim: fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash, muloqotga kirishish, matn yaratish, uni tahlil qilish, til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, axborotni izlash, saralash, baholash va undan foydalanish. Ushbu kompetensiyalar, avvalo, tilni ongli ravishda o'rganishni, so'ngra esa bu bilimlarni nutqiy faoliyatda to'laqonli qo'llay olishni talab qiladi. Bu esa dissertatsiyaviy tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan "til o'rganish" va "til o'zlashtirish" bosqichlari o'rtasidagi farqni amalda tatbiq etish zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Milliy o'quv dasturida o'quvchining faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini, ijodiy va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash asosiy tamoyillardan biri sifatida belgilangan. Bu esa ona tili fanida faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmay, balki o'quvchining individual nutqiy salohiyatini rivojlantirish, ya'ni tilni to'laqonli o'zlashtirish jarayoniga ustuvor ahamiyat qaratilishini ko'rsatadi.

Milliy o'quv dasturining muhim jihatlaridan biri – matn asosidagi yondashuvdir. Unda til birliklarini matn asosida o'rgatish, til vositalarining kontekstda qo'llanilishini anglash, matn yaratish, tahrirlash, qayta ishlash kabi faoliyatlar orqali o'quvchining amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga alohida urg'u berilgan. Aynan shu nuqta dissertatsiya mavzusida til o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda matn bilan ishlash usullarining ustunligi haqidagi g'oyani qo'llab-quvvatlaydi.

Milliy o'quv dasturida ta'lim mazmuni yosh xususiyatlariga, psixologik rivojlanish bosqichlariga, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos tarzda shakllantirilgani tilni o'rganish va o'zlashtirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu holat, ayniqsa, 5-sinf bosqichida o'quvchilarning Piaget nazariyasi asosidagi kognitiv rivojlanish xususiyatlariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi.

Umuman olganda, Milliy o'quv dasturi til o'rganish va til o'zlashtirish bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashtirgan holda, ona tili ta'limining kompetensiyaviy asosda tashkil etilishini belgilab bergan zamonaviy metodik asosdir. Dissertatsiyada taklif etilayotgan farqlangan metodika – ya'ni til haqidagi bilimlarni izchil o'rgatish va bu bilimlarni real nutqiy vaziyatlarda qo'llay olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini tashkil etish – aynan Milliy o'quv dasturi talablari bilan mushtaraklikda amalga oshiriladi. Shu boisdan, Milliy o'quv dasturi til o'rganish va til o'zlashtirish jarayonlarini farqlab o'qitish metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etishda muhim ilmiy-amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalda bo'lgan 5-sinf ona tili darsligi o'quvchiga tilni nafaqat o'rganish, balki o'zlashtirish bosqichiga yo'naltirishi tomonlama nisbatan ancha mukammalroq tuzilgan. 2015-yilda nashr etilgan ona tili darsligida⁶, grammatika, to'g'ri talaffuz va imlo me'yorlarini ko'nikma sifatida shakllantirish borasida ko'plab mashqlar, turli tushuntirishlar berilgan. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o'quvchiga o'rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi. Bunday darsliklar axborot berishga mo'ljallangan bo'lib, ularda amaliy mashg'ulotlarga kamroq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, avvalgi ona tili darsliklari tilning tuzilishiga oid tizimli qoidalar va bu qoidalarning yod olinishini ta'minlovchi mashqlardan iborat edi.

Yangi ona tili darsliklari (20247) va o'quv-metodik qo'llanmalarda esa o'quvchining tanqidiy, tahliliy, kreativ fikrlashiga, unda bilimlarni faqat eshitish yoki o'qish bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar yordamida egallashlariga, shu bilan birga, ularning tadqiqotchilik, muammolarga original yechimlarni topish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga katta ahamiyat beriladi. Bundan tashqari, fonetika, grafika, talaffuz va imlo me'yorlari, leksikologiya, leksikografiya, punktuatsiya va ish qog'ozlari bo'limlari mufassal yoritib berilgan. Yangi ona tili darsliklarida o'rganilgan til qoidalari tizimli tarzda emas, balki matnlar asosida beriladi. Aksariyat hollarda, qoidalar ixcham, ortiqcha terminologiyadan xoli tarzda keltiriladi. Mashqlar matn asosida tuzilgan bo'lib, o'quvchilarda matnni o'qib tushunish, yaratish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Yangi 5-sinf ona tili darsliklari til o'rganish va o'zlashtirish jarayonlarini integratsiyalashgan holda tashkil etgan bo'lib, bu o'quvchining faqat bilim olishini emas, balki shu bilimlarni hayotda qo'llay olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda ona tili ta'limida til o'zlashtirish jarayoni zamonaviy ilmiy yondashuvlar, texnologik yangiliklar va individual ehtiyojlarga moslashuvchanlik asosida rivojlanib bormoqda. Bu esa til o'rganish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish, har bir o'quvchi uchun optimal rivojlanish sharoitini yaratish imkonini bermoqda.

2025-yilda til o'zlashtirish sohasidagi so'nggi tendensiyalar texnologik yangiliklar, pedagogik rivojlanish va o'quvchi markazli yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanmoqda. Ushbu tendensiyalar dunyo bo'ylab tillarni o'rganish, o'qitish va baholash usullarini tubdan o'zgartirmoqda, shuningdek, shaxsiylashtirish, immersiya va o'zaro aloqaga katta e'tibor qaratilmoqda.

Eng avvalo, sun'iy intellekt til o'zlashtirish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchining kuchli va zaif tomonlari, rivojlanish sur'ati asosida individual o'quv yo'llarini yaratadi. Bu tizimlar talaffuz, grammatikani va ravonlikni real vaqt rejimida tahlil qilib, o'quvchiga moslashtirilgan vazifalar beradi. Sun'iy intellekt chat-botlari esa haqiqiy suhbatlarni simulyatsiya qilib, o'quvchiga xavfsiz va interaktiv muhitda til amaliyotini taklif etadi. Shunga qaramay, madaniy kontekst va nozik fikr-mulohazalarni yetkazishda o'qituvchilarining o'rni saqlanib qolmoqda, shuning uchun eng samarali yondashuv sun'iy intellekt va mutaxassislar tomonidan olib boriladigan o'qitishning uyg'unlashgan shaklidir.

Moslashuvchan va qulay til ta'limiga bo'lgan talab ortib borayotgani sababli, onlayn va an'anaviy o'qitishni birlashtirgan gibridd modellar ommalashmoqda. Ushbu modellar raqamli platformalarning keng qamrov va qulayligi bilan yuzma-yuz o'qitishning shaxsiy aloqasi va madaniy immersiyasini uyg'unlashtiradi. Masalan, Berlitz Fleks kabi dasturlar sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o'rganish va jonli mutaxassis nazoratini birlashtirib, o'quvchilarga istalgan vaqtda va joyda o'qish imkonini beradi.

Globalizatsiya ko'p tillilikka bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda, ota-onalar va ta'lim tizimlari bolalarni erta yoshda bir nechta tilni o'rganishga rag'batlantirmoqda. O'yin asosida va integratsiyalashgan ko'p tilli dasturlar kengaymoqda, bu esa bir vaqtning o'zida bir nechta tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Shuningdek, eshitish, ko'rish va harakatga asoslangan multimodal o'rganish usullari turli o'rganish uslublariga moslashib, tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Til o'zlashtirish tadqiqotlarida kommunikatsiya, empatiya va hissiy intellekt kabi nozik fikr-mulohazalarni ifodalashga xizmat qiladigan ko'nikmalarni til ta'limiga integratsiyalash muhimligi ortmoqda. Ushbu ko'nikmalar samarali muloqot va madaniy tushunishni ta'minlaydi, bu esa sun'iy intellekt tomonidan to'liq qoplanmaydi. Til va madaniyat almashinuvi uchun yaratilgan "peer-to-peer" platformalar o'quvchilarning global kompetensiyasini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv baholash vositalari nutq, tinglash, o'qish va yozish kabi barcha til ko'nikmalarini aniq va real vaqt rejimida baholaydi. Bu vositalar o'quv jarayonini doimiy monitoring qilish va sertifikatlashda an'anaviy standartlashtirilgan testlardan ko'ra samaraliroqdir. Shuningdek, ular til rivojidagi muammolarni erta aniqlash va individual aralashuv strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Conclusion

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilda til o'zlashtirish sohasidagi so'nggi tadqiqotlar va amaliyotlar sun'iy intellekt va o'qituvchilarning uyg'unligi, immersiv texnologiyalar, moslashuvchan o'rganish shakllari, erta va multimodal til o'rganish, ma'lumotlarga asoslangan shaxsiylashtirish hamda ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu yondashuvlar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini, samaradorligini va amaliy muloqot qobiliyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Ona tili ta'limida tilni o'rganish va o'zlashtirish jarayonlarini farqlab, ularni uzviy bog'liqlikda olib borish zarur. Faqat nazariy bilim berish emas, balki uni amaliy nutqiy faoliyatda qo'llashga o'rgatish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridandir. 2017-yilgi DTS, Prezident farmonlari va kompetensiyaviy yondashuvlar til o'zlashtirishning real kontekstda amalga oshirilishini talab qilmoqda. 5-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ularning kognitiv xususiyatlari, multimodal qabul imkoniyatlari, mustaqil faoliyatga yo'naltirilgan interfaol usullar qo'llanilishi lozim. Bu yondashuvlar ona tili ta'limini yangi bosqichga olib chiqadi va o'quvchining til salohiyatini mukammal shakllantirishga xizmat qiladi.

References:

1. Mahmudov, N., Nurmonov, A., Sobirov, A., Qodirov, V., Jo'raboyeva, Z.
2. Ona tili: 5-sinf uchun darslik. To'ldirilgan 4-nashr. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015. – 224 b.
3. Mavlonova K.M., Qodirova S.H., Hakimova N.S., Siddiqov M.R. Ona tili: 5-sinf, II qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.
4. Muhiddinova X. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. nom-di diss. TDPI – Toshkent, 2011. – 270 b.
5. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo'yicha fal. Dok. (PhD) ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 2-jild.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 3-jild.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. – Toshkent, 2017. – 22 b. – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3160843>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2021. – 10 b. – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5672445>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini 2022–2026 yillarda amalga oshirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni. – Toshkent, 2021. – 12 b. – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5714625>

11. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim mazmunini belgilovchi Milliy o'quv dasturi / O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi. – Toshkent, 2020. – 48 b. – [Elektron manba]: <https://uzedu.uz/national-curriculum.pdf>

